“TAJVID” ATAMASINING PAYDO BO‘LISHI

Miraxmadova Xusnora Dilshod Qizi
Tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tajvid ilmining paydo bo‘lishi, tarixiy shakllanish jarayoni va mustaqil ilm sifatida rivojlanish bosqichlari ilmiy-tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Tajvid atamasining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari, dastlabki islom davrida Qur’on tilovatiga oid qo‘llangan tushunchalar hamda tajvid qoidalarining yozma manbalarda aks etishi o‘rganilgan. Xususan, Ibn Mujohid, Abu Muzohim Hoqoniy, Abu Hasan as-Saidiy, Makkiy ibn Abu Tolib va Abu Amr ad-Doniyning tajvid ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, hijriy IV–V asrlarda yaratilgan dastlabki tajvid asarlarining mazmuni, metodologik xususiyatlari va Qur’on qiroati ilmidagi o‘rni qiyosiy-tarixiy hamda manbashunoslik usullari asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida tajvid qoidalari dastlab og‘zaki an’analar orqali saqlanib, keyinchalik alohida ilmiy yo‘nalish sifatida tizimlashtirilgani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tajvid ilmi, Qur’on qiroati, maxraj, harf sifatlari, tartil, Ibn Mujohid, Hoqoniyya qasidasi, Makkiy ibn Abu Tolib, Abu Amr ad-Doniy.

KIRISH

“Xarflarning maxrajlari, sifatlari va ularni gapda talaffuz qilinganda kelib chiqadigan hukmlarni o’rganadigan ilm ma’nosidagi “tajvid” atamasi to’rtinchi hijriy asrdagina tanildi. Shuningdek, ushbu asrdan avval bu haqda yozilgan kitoblar ham ma’lum emas edi. Buning sababi shuki, tajvid ilmi mustaqil ilm sifatida Qur’on va arab tili ilmlariga nisbatan ikki asr kechroq ko’zga ko’ringan. Ba’zi keying manbalarda sahoba Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu "...جوّدوا القرآن" deganlar. Ba’zi yangi tadqiqotchilar ushbu rivoyatga tayanib tajvid ilmining kelib chiqishi sahobalar davriga borib taqaladi deydilar. Yana aytadilarki: “Biz tajvid ilmini mustaqil ilm darajasiga yetib borgunicha bosib o’tgan yo’lini bizga to’liq vasflab beradigan manbalarga ega emasmiz”. Uning avvalgi bosqichi haqida bilinadigan narsa shuki, tajvid ma’nosiga yaqin kalimani birinchi

bo’lib ishlatgan bu sahoba Ibn Mas’uddir. U kishi musulmonlarga nasihat qilib, “Qur’onni yaxshilab o’qinglar va go’zal ovoz bilan ziynatlanglar...” Ko’rinib turibdiki, tajvid ilmining kelib chiqishi Ibn Mas’udning chaqiriqlariga ko’ra va buning ortidan qiroat qoidalarini me’yorlashtirishga harakat orqali bo’lgan.

Ushbu rivoyat qadimgi manbalardan qidirilganda uni dalillanishga yaroqsiz deb topildi. Unda "جوّدوا"dagi “vov” o’rniga "جرّدوا"da “ro” bilan kelgan. Mening nazdimda keyingi davrlardagi manbalarda rivoyat o’zgargan. Chunki, matn sanadi qadimiy manbalar sanadiga borib taqaladi. Matn esa, birgina harfda farq qiladi. Asl nus’hada rivoyat Qur’onni beshliklar, o’nliklar, suralarning ismlari va shunga o’xshash narsalardan ajratinglar degan ma’noda kelgan.

Shunisi ma’lumki, Qur’oni karimda tilovatni vasflaydigan (ج و د) o’zakli kalima kelmagan. Shuningdek, to’qqiz mashhur hadis kitoblariga asoslangan “Al-Mu’jamul mufahras li alfazil hadisin nabaviy”[1] lug’at kitobida ham bu borada biror narsa kelmagan. Shu va endi keladigan dalillar bilan “tajvid” kalimasi nubuvvat asrida ishlatilmaganiga dalolat qilsa bo’ladi.

Nubuvvat asrida “tajvid” kalimasi ma’nosida ishlatiladigan bir necha kalimalar bo’lgan. Masalan, “tartil”, “tahsin”, “tazyin”, “tahbir” so’zlari. Bu so’zlar sof arabiy talaffuz bilan go’zal ovoz va adoga to’liq e’tibor bergan holatdagi tilovat vasfiga ishlatilgan. Ushbu to’rt so’zdan faqatgina “tartil” so’zigina Qur’onda ishlatilgan.[2]

Bu o’sha davrda arablarda (ج و د) o’zakli so’zlar ishlatilmagan dagani emas. Ushbu o’zakdan chiqarib olingan ko’plab ishlatiladigan so’zlar bo’lgan. Masalan, "الجيّد" yomonning ziddi bo’lgan “yaxshi” so’zi. وجاد الشئ جُودة وجَوْدة ya’ni “yaxshi bo’ldi” أجاد أتي . بالجيد من القول والفعلya’ni “yaxshi gap aytdi” yoki “yaxshi ish qildi”degani. ورجل جوّاد . وجاد الفرس فهو جوّاد , ot “yaxshi chopadigan bo’ldi”[3] va سخيّya’ni “sahiy kishi” degani. hokazo. “ Tajvid” جَوّدت الشئ dan masdardir.

[1] “Al-Mu’jamul mufahras li alfazil hadisin nabaviy”

[2] Furqon 32, Muzammil 4.

[3] “Lisanul arob”

Izlanganim manbalarda “tajvid” so’zi istilohiy ma’nosiga yaqin ma’noda ishlatilishidagi eng avvalgi manbalardagi ma’lumotlar Ibn Mujohid (324-hij.vaf.) “Sab’atu fil qiroaat” kitobi muallifinikidur. Doniy (444-hij. vaf.) aytadi: “Husayn ibn Shokir Mismar aytadi: menga Ahmad ibn Nasr aytadi: Ibn Mujohidning shunday deganini eshitdim: “Qur’ondagi lahn(xato) ikki hildir: oshkora va maxfiy. Oshkorasi e’robdadir. Yashirini esa, lafzlarni tajvid(yaxshi) bilan chiqarishda harflar haqqini ado qilmaslikdir. Ahmad ibn Abu Amr (500-hij.vaf.) quyidagicha naql qiladi: “... maxfiysi, lafzlarni tajvid bilan ortiqchalik va kamchiliklarsiz chiqarishda harflar haqqini bermaslikdir”.

Tajvid o’zining hozirgi istilohiy ma’nosi bilan tanilgan vaqt bu, tajvid ilmi borasida mustaqil kitob yozilgan vaqtdir. Ibn Jazariy Abu Muzohim Muso ibn Abdulloh ibn Yahyo Hoqoniy Bag’dodiy (325-H.Y. vaf) ning tarjimai holini yozib aytadi: “ Men bilishimga ko’ra tajvid ilmi borasida ilk asarni u yozgan. Uning ajoyib qasidasi mashhur bolib, uni Hofiz Abu Amr sharhlagan”.

Ibn Jazariy bu yerda tajvid borasida ilk bitilgan asar bu Abu Muzohim Hoqoniyning “Roiyya[4] qasidasi” nomi bilan mashhur “Hoqoniyya qasidasi” asaridir deb ishora qilyapti. Uning muqaddimasida quyidagicha keltiriladi:

أقول مقالا معجبا لأولي الحجر و لا فخر، إنّ الفخريدعو إلى الكبر

“Aql egalari uchun ajoyib gap aytaman.

Faxrlanish uchun emas, chunki faxrlanish kibrga olib boradi”

Baytlarining soni ellik bittadir. Unda tajvid mavzularining bir qismi zikr qilingan.

“Hoqoniya qasidasi” tajvid ilmi borasida yozilgan mustaqil ilk asar bo’lsada Abu Muzohim unda “tajvid” kalimasini ishlatmagan. Uning o’zagidan kelib chiqqan so’z ham ishlatmagan. Uning o’rniga "الحسن" so’zini va undan kelib chiqqan so’zlarni ishlatgan. Beshinchi baytning boshida aytiladiki:

أيا قارئ القرآن أحسن أداءه

“Ey Qur’on qorisi, uning adosini go’zal qilgin”

[4] Baytlar oxiri “ro” xarfi bilan tugagani uchun shunday nomlangan.

O’n yettinchi baytning avvalida esa, quyidagicha:

فقد قلت في حسن الأداء قصيده

“Go’zal ado borasida qasida bitdim”

Abu Muzohimning o’z qasidasida “Tajvid” so’zini ishlatmagani o’sha davrda paydo bo’lgani bilan asli bu atama mashhur bo’lmaganiga dalolat qiladi. Lekin aytib o’tganimizdek uning zamondoshlaridan Ibn Mujohid ishlatgan.

“Tajvid” atamasini Ibn Mujohiddan keyin birinchi bo’lib Abu Hasan Ali ibn Ja’far as-Saidiy (410-h.y. vaf) o’zining birinchi kitobi “At-Tanbeh ala lahnil jaliy val lahnil xofiy”da aytadi: “Qur’on lafzlari tajvididan bir parcha yozishimni so’radilar”. Yana boshqa bir joyda: “Qori "الضآلّين" ning va yana boshqa joylardagi "ض" ning tajvidiga amal qilishlik lozim bo’ladi”. “Tajvid” atamasini ishlatishlik Saidiyning zamonidan keyin keng ko’lamda tarqaldi.

Ibn Jazariyning ““Hoqoniyya qasidasi” tajvid ilmida ilk yozilgan asardir” degan fikrini qabul qiladigan bo’lsak, ushbu kitobning tanilishi bilan Saidiyning “At-Tanbeh ala lahnil jaliy val lahnil xofiy” kitobining tanilish payti yaqindir. Saidiyning kitobi esa, bugungi kunda “Hoqoniyya qasidasi”dan keyin tajvid ilmida yozilgan eng qadimgi asarligi bilan ajralib turadi. U tajvid ilmidagi mustaqil ta’lifning boshlanishidir.

Ibn Nadim(385-h.y.vaf)ning “Fihrisat” asariga murojaat qilganimizda “tajvid” nomi bilan aytib o’tilgan biror kitob topilmadi. Hatto tajvid mavzusida yozilgan kitob ham. Holbuki, kitobning birinchi bo’limini uchinchi bobida Qur’on ilmlari borasida yozilgan yuzlab kitoblar nomini keltirgan. Bu holat esa, tajvid ilmining tortinchi hijriy asrda ilk qadamlarini qo’yganini va Ibn Nadim o’z kitobini yozayotganida (377-h.y.)[5] bu boradagi kitoblar mashhur bo’lmaganiga dalil bo’ladi.

Biz bir oz oldinroq ilgarilab bechinchi xijriy asrga kirar ekanmiz unda tajvid ilmi borasida yozilgan asarlarni topshimiz mumkin. Aynan ko'plab tajvid kitoblari shu asrda ko'rina boshlaganini kuzatamiz. To'rtinchi hijriy asrning oxirida paydo bo'lgan Saidiyning "At-Tanbih alal lahnil jali va lahnil xofi" kitobidan keyin yoki beshinchi asrning ilk

[5] Qarang: Fihrisat, 27-42 betlar.

yillarida Andalusda tajvid ilmi borasida ikki katta kitob paydo bo'lganini ko'ramiz. Ular Makkiy ibn Abu Tolib Al-Qoysining (437-h.y.vaf.) “Ar-Riaya” kitobi hamda Abu Amr ibn Saiyd Ad-Doniyning (444-h.y.vaf.) “At-Tahdid” kitobidir. Bu ikki kitobdan keyin o'sha asrning o'zida Abdul Vahhob Qurtubiyning (465-hij.y.vaf.) “Mavdih” kitobi paydo bo'ldi. Bu kishi esa Makkiy va Doniyga zamondosh bo'lgan.

Makkiyning “Rioya” kitobi muqaddimasida beshinchi asrni tajvid ilmi borasida talif etilgan kitoblarning paydo bo'lishidagi haqiqiy tarix ekanligiga ishorala topamiz. Makkiy aytadi: "Mutaqoddimlardan birontasi bu kitobim kabi biror bir narsa talif etganini bilmayman. Men jamlagan harflarning sifatlari va ularning laqablari to'risida biror bir narsa mendan avval jamlanganini bilmayman. Allohning kitobi lafzlaridagi har bir harf borasida izlandim uning lafzlari tajvidiga e'tibor qildim va tilovat borasida uni rioyasini qilishlikka urg'u berdim. 390-yilda hayolimda bu kitobni yozishni va tartibini tasavvur qildim va hayolimga kelgan narsalarni o'sha vaqtnning o'zida yozdim. So'ngra uni bir muddat qo'yib qo'ydim. Chunki mendan avval bu ilm borasida menga ko’makchi bo’ladigan kitob yozgan muallifni topa olmadim. Oradan bir muddatdan o’tib, Alloh meni niyatimni quvvatlantirdi va qalb ko'zimni keskinlashtirdi va ushbu kitobni tamomlashga qasd qildim. So'ngra ushbu kitobni 30 yilda tamomladim"

Doniyning “At-Tahdid” kitobining muqaddimasida ham Makkiyning gapidan tushunilgan, tajvid ilmida ularning vaqtida biror bir kitob bo'lmaganligiga ishora bordir. Doniy aytadi: "Men asrimizning qorilari yengil qarayotganini, zamonamizning qiroat ustozlari tilovatdagi tajvid, qiroatdagi tahqiqqa e'tiborsiz bo'layotganini, Alloh taolo tafsiya qilgan narsani tark qilib, Rasulullоh s.a.v. ummatlarini undagan Qur'onni tilovat qilishda tartil va tarassulga e'tiborsizliklari meni bu borada hajmi kichik bo'lgan, ko'tarishga yengil bo'lgan bir kitob yozishga undadi. Unda itqon va tajvid ilmining vasfi tartil va tahqiqning kayfiyatini avvalgi mashoyihlarimiz keyingi imomlarimiz ado qilgan yo'lga ko'ra vasf qilishni niyat qildim va buni bayon qilishda qattiq kirishdim. Bunda butun kuchimni sarfladim va bir maqsadga erishdim. Bu kitobning foydasi ko'p bo'lishligi uchun maxfiyu oshkorasini zohiru yashirin qoidalarda bayon qildim. O’tgan qurrolarimiz, imomlarimiz

bizgacha yetib kelishida ishtirok etgan ulamolarimiz yo'liga ko'ra sunnat va xabarlarni keltirdim."

Shunday qilib tajvid ilmining mustaqil ilm shaklida paydo bo'lishligi boshqa ilmlardan ancha kech bo'lgan. Qur'on ilmlari hamda arab tili ilmlari tajvid ilmidan ancha avval zohir bo'lgan. Arab tili va gramatikasi ulamolari, hamda qiroat ulamolarining harakatlari tajvid ilmi keyinchalik ado etgan vazifani o'sha payt bajargan. Misol uchun to'g'ri nutq qilish asl qoidalari, arab tili tovushlarini talaffuz qilishda turli hil buzulishlardan ehtiyot bo'lish kabi. Ammo biz qiroat borasida va Qur'on qiroatlarining vasfi borasida yozilgan kitoblarni tajvid ilmi borasida yozilgan kitoblar deb atay olmaymiz. Garchi qiroat ilmi va tajvid ilmi, ikkalasi ham Qur'on lafzlari bilan bog‘liq bo‘lsa ham o‘z mavzusida huddi o‘z manhaji kabi farq qiladi.

Tajvid ilmi avvalda mustaqil ilm holida zohir bo‘lmagani qiroat qorilarini tajvid ilmiga rioya qilmay o‘qigan degan ma‘noni anglatmaydi. Chunki, tajvid ilmi qoidalari agarchi yozilgan bo’lmasada arablarning tilida asli mavjud bo‘lgan. Tajvid ilmi borasida kitob yozishlik to‘rtinchi hijriy asrdagi ilk kitobidan so‘ng hozirgi vaqtimizgacha davom etib kelgan, uzulib qolmagan. Bu narsa musulmonlarni Qur'on bilan qay darajada bog‘liq ekanliklarini, uni harflarini tajvid ila o‘qishga harisliklarini, uning lafzlarini mukammal darajada nutq qilishga harakat qilishlarini ko‘rsatadi. “Tajvid ilmi borasida yozilgan kitoblarning ismlarini sanab o‘tishlik mening bilganimga ko‘ra bu yo‘lda qilingan ilk harakatdir” deydilar Doktor G’unaym. Bu ro’yhat nuqson va kamchilikdan holi bo‘lmaydi albatta. Men ro‘yhatni tuzishda qo‘lyozma mundarijalardan o‘zim bohabar bo‘lganini qisqa qilib keltirganman. Misol uchun Xoji Halifanining “Kashfuz zunun” va bir necha tarjima kitoblardan, masalan Ibn Jazariyning (833-hij.vaf.) “G‘oyatun nihaya fi tobaqotul qurro”. Bunda Ibn Jazariy qiroat va tajvid ilmiga bog‘liq bo‘lgan barcha kitoblarni ismini keltirganlar va bu narsa mualliflarning vafot yiliga ko‘ra tartiblangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Doktor Gunaym Quduriy Hamdning “Dirosatus sovtiyya inda ulamait tajvid” asari asosida tayyorladi.